

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARNING INTELEKTUAL  
SALOXIYATINI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA  
OPTIMALLASHTIRISH METODIKASI.**

---

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
mактабгача та'лим факултети о'қитувчиси  
Ataboyeva Muyassar Baxromovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak ingliz tili o\_qituvchilarining intelektual saloxiyatini shaklantirishda klasterli yondashuvlar yoritib berilgan bo'lib bo'lajak ingliz tili o'qituvchilalarida kommunikativ ko\_nikmalarni shakllantirishning ahamiyatli yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, o'quvchilarda intelektual ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yordam beruvchi kommunikativ treninglardan namunalar keltirilgan. Bugungi kun jamiyatimizda chet tillarni ayniqsa ingliz tilini o'qitish kundan kun rivojlanib bormoqda. Ingliz tilini o'qitish protsessida ta'lim metodlari mexanizmi muhim rol o'ynaydi. Samarali metod kompetentlarini dars mashg'ulotlari davomida qo'llash bu har bir professor-o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan intelektual yondashish va izlanish mahsuli sifatida baholanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning funksional serunumligi tilni o'qitish jarayonidagi integratsional bog'lanish protsessini mukammalashtiradi.

**Kalit so'zları:** qobiliyat, o'qituvchini qobiliyatini rivojlantirish, —train, —training intelektual saloxiyat treninglar. *zamonaviy pedagogik texnologiyalar, funksional protsess, intellektual aspekt, kasbiy samaradorlik, metod, usul, tamoyillar*

### ABSTRACT

In our society today, the teaching of foreign languages, especially English, is developing day by day. The mechanism of teaching methods plays an important role in the process of teaching English. The use of effective method competencies in the classroom is valued as a product of the intellectual approach and research of each faculty member to their profession. The functional serenity of modern ped-technologies improves the process of integrated communication in the process of language teaching.

**Keywords:** modern ped-technologies, functional process, intellectual aspect, professional efficiency, methods, ways, approaches

### АННОТАЦИЯ

Сегодня в нашем обществе обучение иностранным языкам, особенно английскому, развивается день ото дня. Механизм методики обучения играет важную роль в процессе обучения английскому языку. Использование эффективных методов в классе ценится как результат интеллектуального подхода и исследования каждого преподавателя в своей профессии.

Функциональная безмятежность современных пед-технологий улучшает процесс интегрированного общения в процессе обучения языку.

**Ключевые слова:** современные пед-технологии, функциональный процесс, интеллектуальный аспект, профессиональная эффективность, метод, принцип, способ

Hozirgi jadal globallashuv davrida oliv ta'limda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini intelekyual saloxiyatini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki hozirgi davrda o'qituvchi faoliyatida uchraydigan saloxiyat munosabatlarda so'z bilan og'zaki ta'sir etish nihoyatda xilma-xil bo'lib, bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil ko'rinishini o'zida mujassamlashtiradi. Ayniqsa, pedagogik ta'sir etishni tashkilshtirishda so'zning ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan pedagogik muomala madaniyatiga va o'qituvchining shirin so'zligiga alohida talablar qo'yiladi. Shu o'rinda intelektual saloxiyat so'ziga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, avvalo, «intelektual» atamasi fanga XX asrning oxirida kirib kelgan. «Intelektual» lotincha “Inlectus”, so'zlaridan kelib

Aql idrik bilish tushunish degan ma'nolarni bildiradi. Bugungi kunda chet til (ingliz tili)ni o'qitish va o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash barcha ta'lim muassasalarida izchillik va bardavomiylik bilan rivojlanib bormoqda shu bilan bir qatorda keng ko'lamda tatbiq qilinmoqda. Natijada barcha ta'lim dargohlarida mashg'ulot xonalarning tobora xilma-xilligi oshib o'quvchi va talabalarga boy imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda samarali o'qitish, o'rganish imkoniyatlarini keng ochmoqda. Butun dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rganish soni kundan kun ortib borayotganligi sababli, muhim masala mavjud, barcha ta'lim muassasalarida mavjud resurs markazlari o'rganuvchilar uchun zarur qo'llanma materiallar zamonaviy metodlar asosida qamralgan manba shakllantrishni talab qiladi. Shuhbasiz, darsni ilmiy tashkil etishda muhim, hamda shu qatorda ko'chmas strategik poydevor qolipini yaratish ham zamon talabidir, bu esa o'z navbatida bir necha tamoyil va usullarga bo'linadi. Bundan maqsad, darsni yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan e'tibordir. Professor- o'qituvchilar tomonidan talabalar ishtirokida mashg'ulot labaratoriyasida zamonaviy ta'lim metodlari asosida olib borilgan ta'lim jarayoni ikki sherikchilik asosidagi hamkorlik manbai hisoblanadi va yakuniy qismda kutilatgan natijani yuzaga olib chiqish esa bu o'qituvchining kreativlik mahoratini aniqlab beradi. Mashg'ulotga nisbatan turli yondashuv nafaqat fikrlash salohiyatni kuchaytirib qolmasdan balki talabaning sohaga oid ko'nikmalarini( gapishtish, yozish, o'qish, eshitish) keskin rivojlantirishga qaratilgan. “Interaktiv metodlarning ko'nikmalar bilan uzviy bog'lanishi dars mashg'ulotlarining qiziqarli va bir birini to'ldirgan holda izohlanadi. Buning uzviyligini ta'minlash shak-shuhbasiz pedagog – o'qituvchilarning

o‘z vazifasiga nisbatan ma’suliyatlik hamda mahorat bilan yondashishni talab qiladi”

### **1 MUHOKAMA ( DISCUSSION)**

Hozirgi zamonaviy davrda sinf – mashg‘ulotlarini ijodkorona yondashish, o‘qitish bilan ko‘ramiz.

#### **O‘qitish tamoyili.**

O‘quv xonasida bajariladigan tabiiy o‘rganishning fikrlari, ishonchlari va usullar hamkorligidagi umumiy yig‘indi jamlanmasidir.

#### **O‘qitish strategiyasi.**

Keng izohli termin rejasি hisoblanib ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lidagi aniq o‘qitish qolipi.

#### **O‘qitish metodi.**

Biron bir narsani bajarishda sistematik usul. Mantiqiy rejaning bosqichma bosqich borish yo‘nalishi. Juda samarali usul. O‘qitish texnikasi juda yaxshi belgilangan ish tartibining maxsus faollik va vazifani amalga oshirishga asoslangan kreativ yondashish.

#### **Alovida shug‘ullanish tamoyili.**

Bunda talabandan alovida va yolg‘iz o‘zi shug‘ullanishni talab qilanadi, maqsad talabaning muammoli vaziyatni mustaqil hal qila olishdir.

#### **Aniq o‘qitish tamoyili**

Bu yerda shuhbasiz o‘qituvchidan aniq gapirib berish va ko‘rsatish yoki namoyish qilishi talqin qilinadi.

#### **Tartibli tamoyil.**

U chegaralanadi, o‘qituvchining munozarali muhokamasi o‘quvchilar ishtirokida ko‘zlangan mavzu bo‘yicha asoslanadi.

#### **Hamkorlikda ishlash tamoyili.**

Guruh , jamoa, sherikdoshlik asosida ishlash va guruh muhokamasi; hamkorlik usuliga tayanadi.

#### **Banking tamoyili.**

O‘qituvchi bilimini garovga qo‘yadi, o‘quvchilarning bo‘shliq fikrlash doirasida ularning eslash va xotiraga olish prinsipi asosida bo‘ladi.

**Integratsiya tamoyili.** Bu tamoyil o‘qituvchini undaydi o‘zining fanini boshqa fanlar bilan bog‘lashga buning natijasida o‘zaro moslashgan ravishda muhitning ichki va tashqi tartibni yaratadi.

#### **Interaktiv tamoyili.**

Bu tamoyilda interaktiv sinfda ko‘proq o‘quvchilar gapiradilar va o‘qituvchi roli kamroq.Talabalarga o‘qituvchi va boshqa o‘quvchilar bilan interaktiv kirishishga ruxsat beriladi.

#### **Ijodiy qurilma tamoyili.**

“Talabalardan bilim ko‘nikmasini yaratish va ilgaridan mavjud bo‘lgan malaka tajribasini mohiyat mazmunini anglash” 2.

Yuqoridagi qayd etilgan ta’lim strategiyasi tamoyili va metod bu umumiy ta’lim komponentlari yig‘indisidir. “Bu komponentlar ingliz tilini o‘qitishda umumiy integratsiya protsessini kuchaytiradi natijada dars-mashg‘ulot protseduralarini bosqichma-bosqich rivojlantiradi” 3 . Har bir o‘qituvchining ingliz tilini o‘qitishda kasbiy komponentlik mahoratini aniqlashda uning mashg‘ulotni tashkil etishdagi sifati, tarkibiy strategik tamoyili hamda ketma-ketlik bosqichlarni samarali bajara oladigan metod tamoyilini to‘g‘ri tashkil eta olishi bilan belgilanadi. Binobarin sifatli dars mashg‘ulotini tashkil etishda bir necha tamoyilar mavjud bo‘lib ular o‘z o‘rnida o‘rgatuvchi va o‘rganuvchilarning ko‘zlangan maqsadiga to‘la to‘kis erishish hisoblanadi. Mashg‘ulot davomida bir necha metoddan foydalanish shuhbasiz imkonsiz yoki eng kamida bitta metodan to‘la-to‘kis samarali foydalanish shak-shuhbasiz murakkab jarayondir. Shunga ko‘ra biz aytaolamaymiz, qaysi metod juda murakkab yoki foydali o‘qituvchilar uchun deb, aksincha biz shunday hisoblaymizki eng maqbul usul va yondashuv mashg‘ulot uchun bu professor-o‘qituvchilarning o‘z dars mashg‘ulotlarining sifat va tuzulish asosiga tayangan holda o‘zi tanlagan tanlovli aspekti o‘z o‘rnida talabalarga ko‘mak beradigan hamda muhitnin samaradorligini oshiradigan maqsaddir. Har xillik va moslashuvchanlik sinfdagi sharoitning mazmunli xususiyatidir. Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, strategiyalar, metod va tamoyillar zanjiri interaktiv dars-mashg‘ulotlarni tashkil etish mezonini hisoblanadi hamda qiziqarlilik potensiyasi yetarli darajada rivojlanadi, natijada hamkorlik usullari individuallik salohiyatidagi ijobiylik xususiyatlari tegishli ravishda mukammalashadi. “Har bir metod yoki usul o‘qituvchi tomonidan tanlab olingan dars – mashg‘ulotning effektivligini nafaqat kuchaytirib qolmasdan balki talabaning reproduktivligini oshiradi, bu o‘qituvchining o‘z odiga qo‘ygan maqsadlari sari bir qadam oldin qo‘yilganlik maqsadini ifodalaydi” 4 . Talabaning ilmiy salohiyatini oshirishda har bir tamoyilning maqsad va vazifalarini konkretlashtrish va izchilligini zamonaviy o‘qitish strategiyasini kuchaytirdi va tajriba tamoyillarini kengaytiradi.

### **XULOSA ( CONCLUSION)**

Xulosa qilarkanmiz, yuqoridagi har bir maqsadli qo‘llanilgan dars usullari o‘quvchining qaysidir mahoratini yuzaga chiqarishga yordam beradi, masalan, deduktiv va induktiv o‘rganish sohalari o‘rganuvchining ichki va tashqi bilim kunikmalarini rivojlantirib talabani kreativ fikrlash o‘rganish va tahlilash usullariga yo‘naltiradi. Demak o‘qituvchi o‘z prinsipi asosida o‘zining rejalahtrilgan dars - mashg‘ulotining maqsad-tamoyilidan kelib chiqqan holda saralab olingan metod usullarni individual yoki jamoa tarzidagi o‘quv shakliga joriy etganda umumiy jonlanish ya’ni o‘sish suratini qadamma-qadam kuchaytirib boradi. Biz pedagoglar shuni yaxshi tushunamizki ingliz tili darsida faqat bitta metod yoki usul bilan

chegaraliniб qolishimiz mumkin emas qaysiki talabani qiyin ahvolga solib qo‘yadigan vaziyatdir bu. O‘qituvchi – pedagog bunday bir xillik modelidan qochish va yangidan yangi kompetentlik samadorligini oshirib borish zarur. Turli xillik va moslashuvchanlik mashg‘ulotda har qanday holatda amalga oshirish uchun eng muhim xususiyatlardir. Ma’lum darajadagi majburiyat talabaning rolga kirishishb o‘ylash qobiliyatini, bosqichma bosqich o‘rganib chiqish va yakuniy xulosa berish bilan amalga oshiriladi, o‘qituvchi esa talabaning ijrosini xulosalash, baholash bilan rag‘batlantiradi. O‘qituvchi pedagogik salohiyatidan kelib chiqqan holda darsga yondashadi, o‘z ixtiyoriy prinsipi asosida metod, usul tanlaydi va joriy etadi talaba esa bu protsessda mukammal ijro etishga kirishadi Hamkorlik vositasi o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi barcha zamonaviy ta’lim metodalari usullari va sermahsullik kaliti hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘qitish texnikasini kuchaytiradi ayniqla qiyoslanib o‘rgatish progresslik holatini oshiradi. Yuqorida aytib o‘tilgan metodlar yoki usullar darsga muofiqlik tarzida olib borilsa dars yakunida talabaning bilib olganlik istagi to‘la to‘kis bajarilganligi namoyon bo‘ladi. Xulosa qiladigan bo‘lsak, usullar asosidagi bir butunlik mashg‘ulot har ikki ijrochilarining jamoaviy sermahsullik yondashish prinsipi hisoblanadi.

#### **REFERENCES**

1. Jalolov J. “Ingliz tilini o’qiish metodikasi” (darslik) T.- 2012
2. Hoshimov O’, Yoqubov I. “INGLIZ TILINI O’QITISH METODIKASI” (o’quv qo’llanma) T.-., Sharq Nashriyoti. 2013
4. Рахманова, М. К. (2020). Таълим жараёнида ўқув мунозараларини ташкил этишда ўқитувчининг педагогик маҳорати, ижодкорлиги ва фаоллиги. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal, 4(4), 68-73.
5. Penny Ur “A Course in Language Teaching: Practice of Theory “Cambridge Teacher Training and Development. 2009
6. <https://monster-evo.ru/uz/studentu/metody-priemy-raboty-na-uroke-angliiskogo-yazyka-metody-i-priemy/>